

## BOLALARNING INDIVIDUAL RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK KUZATUV

**Tashxanova Sevara Qobuljanovna**

*Toshkent pedagogika kolleji «Maxsus fanlar» kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni kuzatish va baholash mazmuni yoritib berilgan, bolalarning individual rivojlanishida pedagogik kuzatuv haqida yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar bilan hamkorlik ishlari tarbiyalanayotgan bolalarni hamkorlikda kuzatish va baholashda xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nazorat, baholash, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, indikatorlar (kutlayotgan natija) individual va jamoa bo'lib, to'g'ri strategiya, refleksiya, mashg'ulot, rivojlantirish markazlari, faoliyat turlari, kayfiyati va temperamenti, aniq va tadrijiy mezonlar, ob'ektiv, tadqiqot, ijobiy o'zgarishlar, maqbul strategiyasi, individual ish, ta'lim sohalari, bo'shliq tomonlari, sub'ektiv talqin, rivojlanish dinamikasi.

Pedagogik nazorat va bolani baholash davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasining har biri bo'yicha bolani rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Bola rivojlanishining mezonlari – bu davlat talablarida ko'rsatilgan indikatorlar (kutlayotgan natija).

Pedagog bolani va uning xulq-atvorining real sabablarini yaxshiroq tushunish, bolaning rivojlanishini, ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini aniqlash, ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash maqsadida bolalar hayotini tizimli ravishda kuzatib boradi.

Kuzatish, shuningdek, bolaning xatti-harakati va ta'lim olishi haqida aniq va ob'ektiv ma'lumotni to'plash jarayoni hisoblanib, unda u yakka yoki boshqalar bilan ishlayotgan yoki o'ynayotgan bo'ladi.

Kuzatish jarayonini tashkil etishda jarayon ham, natija ham baholanadi; axborot turli holat va kontekstlarda to'planadi va qayd etiladi; bolalar xulq-atvorini tahlil qilish esa pedagogik qarorlar uchun asos hisoblanadi.

Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatishdan boshlanishi kerak, chunki u bolani tushunishga, tushunishdan esa – u va uning oila a'zolari bilan muloqot qilish uchun to'g'ri strategiyani tanlashga olib keladi. Faqat guruhdagi bolalarni kuzatib, ular o'zlarini yaxshi his qilayotganliklarini va mashg'ulotlar qanday o'tayotganini bilib olamiz. Shuningdek, guruh va rivojlantirish markazlaridagi materiallar va mashg'ulotlar bolalarda qiziqish uyg'otgan yoki uyg'otmaganini, ular ehtiyojlarini qanoatlantirayotgani yoki qanoatlantirmayotganini bilib olamiz.

Kuzatishlar, shuningdek, bizga refleksiya uchun zarur bo'lgan ma'lumotni beradi: muayyan bolalar yoki bolalar guruhlari qanday o'rganayotgani, ularning eng yaqin rivojlanish zonasida qanday ishlash va ularning bilimlaridan qanday foydalanish kerakligi haqida tushuncha hosil qilishga zamin yaratadi. Ular, shuningdek, bizga aniq xatti-harakat tiplari haqida ma'lumot berishi mumkin:

- Bola qoida va tartib-taomillarga qanday munosabat bildiradi?

O'tish davri, tinch va faol davrlar, guruhda va yakka tartibda ishlash davrlarini qanday eplaydi? Ertalablari bola ota-onasi bilan qanday xayrlashadi, ovqatlanish vaqtida o'zini qanday tutadi, kiyinadi, dam oladi va h.k.

- Bola qaysi materiallardan va qanday foydalanadi? Bola ularni osonlik bilan ishlata oladimi? Unga turli-tuman materiallar yoqadimi yoki faqat bir qanchasimi? Ular ijodiy qoʻllaniladimi yoki oldindan belgilangan tartibdami?

- Muayyan faoliyat turlari va materiallarga bolaning qiziqishi qanday. Bola boshqa bolalar bilan qanday munosabatda boʻladi? Bola koʻpchilik bilan oʻynaydimi yoki faqat bir-ikkita bola bilanmi? Bola boshqa bolalar bilan gaplashadimi? Bola oʻyinni birinchi boshlayaptimi yoki uni chaqirishligini kutayaptimi? Bola boshqalar bilan qanday faoliyat turlari bilan shugʻullanishni yoqtiradi?

- Bola pedagoglar va boshqa kattalar bilan qanday munosabatda boʻladi? Kerak boʻlganida bola yordam soʻray oladimi? U koʻp eʼtibor yoki yordam talab qilyaptimi? Bola doimiy maqtovgga muhtojmi? Unga pedagog bilan muloqot qilish yoqadimi? Bola guruhga keladigan kattalar bilan vaqt oʻtkazadimi?

- Bola tildan qanday foydalanadi? Bolani tushunish osonmi? U oʻz niyatlarini ayta oladimi? Uning soʻz boyligi qanchalik katta?

- Bola qanday harakat qiladi? Masalan, tepaga chiqa oladimi, yuguradimi, sakraydimi? Muvozanat saqlay oladimi? Bola koʻptokni ushlay va ota oladimi? Harakatda oʻzini ishonch bilan tutadimi yoki yoʻqmi? Unga futbol, raqs va boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanish yoqadimi?

- Bolaning kayfiyati va temperamenti barqarormi yoki oʻzgaruvchanmi?

Bola ruhiyati tinchmi yoki tajangmi? U tez-tez yigʻlab, kulib va tabassum qilib turadimi? Bolalar oʻz tuygʻularini ogʻzaki izhor qila oladimi? Ular bolalar va kattalar bilan kelisha oladimi? Ular tez xafa boʻladimi?

- Bola guruhda qanday rol oʻynaydi (masalan, sardor, ergashuvchi, tinglovchi, soʻzlovchi)?

- Bola guruh hayotida ishtirok etish uchun maxsus yordamga muhtojmi?

Bolalar vaqtini guruhda qanday oʻtkazayotgani haqida olingan kuzatishlarimizni ular oilalari bilan ham oʻrtoqlasha olamiz. Shuningdek, bolaning taʼlimi, rivojlanishi va xatti-harakati borasida yuzaga kelgan har qanday muammoni hujjatlashtirishimiz mumkin.

Kuzatish – bu bir martalik jarayon emas. Biz uni muntazam, aniq maqsadlar bilan tashkil etishimiz kerak. Bu maqsadlar biz kuzatishlarni necha marta, qancha vaqt davomida va qanday sharoitlarda oʻtkazishimizni aniqlab beradi. Bunda eʼtiborimiz markazida muayyan bola yoki guruh haqida nima bilishni istashimiz boʻladi. Tizimli boʻlish kuzatishlarimizni yoʻnaltirish hamda hujjatlashtirish va anglash uchun aniq va tadrijiy mezonlarga ega boʻlishni anglatadi. Biz koʻrayotgan va eshitayotgan xatti-harakat yoki amallarni aynan taʼriflash orqali (ayblash va baholash emas) obʼektiv boʻlishga intilamiz.

Kuzatish, shuningdek, tadqiqotni oʻz ichiga olishi mumkin. Biz tabiiy sharoitlarda koʻrishimiz amri mahol boʻlgan muayyan koʻnikma, bilim yoki xatti-harakatni kuzatish uchun savollar berishimiz, muammolarni belgilashimiz yoki tadbirlarni tashkil etishimiz (vaziyatni yaratishimiz) mumkin. Masalan, bolalar tomonidan asosiy matematik tushunchalarni oʻzlashtirilishini kuzatish uchun biz kichik bolalar guruhlari bilan “kattaroq”, “kichikroq” va “teng” tushunchalarini hisoblash va tushunish kerak boʻlgan oʻyinlar oʻynashimiz mumkin. Bundan tashqari, biz bola haqida koʻproq bilish va bolani yaxshi biladigan boshqa kattalar bilan bola haqidagi tasavvurlarni solishtirish uchun oila aʼzolari va hamkasblarga savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin.

Kuzatish jarayoniga qisqacha tushuncha:

Kuzatish – bolalar rivojlanishidagi ijobiy oʻzgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaqtda, butun yil davomida hamda toʻplangan maʼlumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u

bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a'zolari bilan o'zaro aloqalarning eng maqbul strategiyasini tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

Kuzatish – bu bolaning ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo'yicha qiziqishlari, ko'nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarni aniqlaydi.

Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalarini bo'yicha olib boriladi. Bolalarni ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatish, ularning turli faoliyat davomidagi dastur asosida bilimlarni egallashi, erishayotgan yutuqlari, ijodiy ishlari, jamoada va yakka tartibdagi ishlari tahlil etib borish orqali xulosalarga tayangan holda xaritalar bolalar yoshiga mos ravishda tegishli kutilayotgan natijalar to'ldiriladi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida kutilayotgan natijalar "ishlamasa", tarbiyachi daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi yoki izoh berishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Ushbu belgi yoki izoh asosida tarbiyachi psixolog, defektolog, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini, shuningdek, ta'lim sohalarini o'zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi.

Tarbiyachi bola yutuqlari xaritasini yiliga 3 marta to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi bilan belgilaydi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida qiyinchiliklar duch kelganda, tarbiyachi daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi yoki izoh berishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Ushbu belgi yoki izoh asosida tarbiyachi psixolog, defektolog, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini, shuningdek, ta'lim sohalarini o'zlashtirishning bo'shliq tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi.

Bolaning rivojlanish xaritalarini yuritish mas'ulligi guruh tarbiyachilariga yuklatilsada, uni to'ldirishda barcha mutaxassis-pedagoglar ma'lum kutilayotgan natijalarni bola tomonidan egallanishini belgilashda ishtirok etishi va pedagoglarning hamkorligi to'laqonli olib borilishi hamda xaritaning to'g'ri va aniq yuritilishini MTT metodisti tomonidan nazoratga olinishi muhim hisoblanadi.

Kuzatuv ma'lum tamoyillarga tayangan holda olib borilishi lozim. Bular:

- Bolaning kuzatilayotgan harakatini pishiq-puxta hujjatlashtirish;
- Sub'ektiv talqin (pedagogning shaxsiy fikri, his-tuyg'ulari) yo'l qo'ymaslik;
- Bola tomonidan shaxsan bajarilgan ishni yoki aytilgan gapnigina xolisona kuzatish;
- Imkon boricha ko'proq ma'lumot to'plash, ular imkon darajasida sodda va tushunarli bo'lishi kerak
- Bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki oy) mobaynida olib boriladi;
- Tarbiyachi bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki Tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin;
- Tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

Kuzatishni o'tkazishdan maqsadlar

Har bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va ko'nikmalarini aniqlash uchun. Kuzatish bolalarni shaxs sifatida bilishni, ularda intiluvchanlik rag'batlantirish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beradi.

Vaqt o'tishi va ta'lim natijalariga ko'ra boladagi o'zgarish va rivojlanish dinamikasini tushunish uchun. Kuzatish bolalarning jismoniy, ijtimoiy va hissiy, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish, ijodiy jihatdan yil davomida rivojlanishini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonga o'zgarishlari kiritish uchun. Pedagoglar bolalar uchun tayyorlangan joy va materiallardan ular qanday foydalanayotganini kuzatib, mavjud materiallar bolalarning ehtiyojiga javob berish-bermasligi, qo'shimcha materiallarga zarurat bor-yo'qligi masalasiga javob topishi mumkin.

E'tibor talab qiladigan holatlarni aniqlash uchun. Kuzatish kattalarga bolalarda qondirilishi zarur bo'lgan alohida ehtiyojlar bor yoki yo'qligini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu eshinish, tayanch-harakat apparati va bola rivojlanishidagi boshqa jismoniy va ruhiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu kabi muammolar aniqlanishi bilan o'z vaqtida tegishli mutaxassislariga murojaat etish zarur.

Muammoviy vaziyatlarni mukammal tarzda hal etish usullarini aniqlash uchun. Kuzatish pedagogga muayyan vaziyatda boladan qanday xatti-harakat kutish mumkinligini aniqlash va shu orqali bolalaga o'z xatti-harakatini boshqarishni o'rganishga yordam beradi.

Rejalashtirishga o'zgarishlar kiritish uchun. Pedagog kuzatish natijalaridan foydalanib, u yoki bu narsani o'zgartirishga ehtiyojni, bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda rejaga qanday o'zgartirishlar kiritish lozimligini aniqlaydi.

Ota-onalar va MTT mutaxassislari foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun. Kuzatish bolalarni, ularning qiziqishlari, yutuqlari, muloqot va o'zaro aloqa ko'nikmalarini, muammolarini, alohida ehtiyojlarini tushunishni hamda xulosalarning asosligini ta'minlashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun. 2018 y.
3. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "Kuzatish va baholash".T.:2020 yil.